

OT PARAZITAR KASALLIKLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8433938>

Janabaev Aydos Janabaevich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali iqtidorli talabalar ilmiy-tatqiqod faoliyatini tashkil etish bólim boshlig'i

Qudaybergenov Timur Yaqip uli

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali 1-kurs magistranti

Qutlimuratov Nietulla Smetulla uli

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali 1-kurs magistranti

Annatatsiya

Mamlakatimizda yilqichilik, naslchilik, va ot sportini rivojlantirish, mahalliy zotdor otlarni ko'paytirish, zamonaviy beshkurash va polo sport turni ommalashtirish, sohaga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Yilqichilik – otlarni urchitish, ko'paytirish, zotni takomillashtirish va naslchilik ishlari bilan shug'ullanuvchi chorvachilikning bir tarmog'i hisoblanadi. O'zbekiston diyorida yilqichilik an'analari va madaniyati minglab yillar bilan o'lchanadi.

Аннотация

Коневодство, племенное разведение и конный спорт в нашей стране. Усиливается развитие, разведение отечественных лошадей, популяризация современного спорта по пятиборью и поло, масштабное привлечение прямых иностранных инвестиций в эту сферу, а также масштабная работа по укреплению материально-технической базы.

Коневодство

отрасль животноводства, занимающаяся разведением, племенным разведением, улучшением и племенным разведением лошадей. Традиции и культура годовиков на земле Узбекистана измеряются тысячами лет.

Kalit so'zlar

invaziya, hayvonlarda sistitserkozi, T.Saginatus, T.Solium, Gelmint

Kirishish:20-asr boshida butun dunyoda 125mln, shu jumladan, O'zbekistonda 590ming bosh yilqi mavjud bo'lgan. So'nggi yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlariichida mashina mexanizmlardan keng ko'lamda foydalanish va avtomobil -yo'l transportining rivojlanishi natijasida ot kuchiga bo'lgan talab so'nib bordi. 1990-yilgake lib O'zbekistondagi yilqi soni atigi 89 ming boshni tashkil etdi. Xalqimizda ot sportiga qiziqishi juda yuqori bo'lib, bugungi kunda ham otga bo'lgan mehr so'ngani yo'q.

Xalq bayramlarida ko'pkari va boshqa ot bilan o'ynaladigan sport o'yinlari o'ynalishi an'ana sifatida avlodan-avlodga o'tib kelmoqda. Hozirgi kunda dunyo yilqichiligi 4 ta asosiy yo'nalishda rivojlanmoqda: naslchilik yilqichiligi, ishchi otlarniyetishtirish va ishchi otlar yilqichiligi, mahsuldor yilqichilik .Yurtimizda ham yilqichilikka katta e'tibor berilmoqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“ 2017-yil 15-iyundagi PQ-3057-son qarori qabul qilingan. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi hududida yilqi sonini ko'paytirishyilqichilikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ot sportini va shu jumladan ko'pkari sport turini rivojlantirish va ommalashtirish vazifa qilib qo'yilgan.

Yurtimizda yilqichilikni rivojlantirish hamda aholi qaramog'idagi otlarni naslini yaxshilash uchun aholini otlar hamda ularni parvarish qilish saqlash va mashq qildirish ko'nikmalarini rivojlantirib aholi orasida ot sporti madanyatini yaxshilash muhim hisoblanadi. Yilqichilikni rivojlantirish uchun otlar orasida uchraydigan yuqumli va yuqumsiz kasalliklar, parazitlar hamda invazion kasalliklar kata to'siq bo'lib hisoblanadi. Qoraqolpog'iston Respublikasi Moynoq tumani aholi qaramog'idagi 100 bosh otlarda izlanishlar klinik, kaprologik hamda terapevtik tekshiruvlar o'tkazilganda ma'lum bo'ldiki otlar orasida tarqalish bo'yicha ichki yuqumsiz kasalliklar 44 % ni, yuqumli kasalliklar 22 % ni, turli xildagi xirurgik travmalar, o'smalar 12 % ni hamda parazitlar kasalliklar 26 % ni tashkil etar ekan. Bundan kelib chiqadiki aholi orasidagi otlarda parazitlar kasalliklar ham keng tarqalgan bo'lib otlarning naslini va sifatini yaxshilashda hamda ishchanligi

va sport bilan shug'ullanishiga kata to'siq bo'lmoqda. Bunday parazitlar kasalliklarda otlar orasida keng tarqalganlari otlar paraskaridozi, oksio'roz hamda trematodozlarhisoblanadi. Otlar paraskaridozi bilan zararlanganda hayvonda holatiningyomonlashuvi, ishchanligining tushib ketishi ozib ketish va vaqtida chorako'rilmaganda o'lim holatlari ham ko'plab kuzatiladi. Buning uchun 20-30 gramm go'sht olinib, maydalanadi va katta kolbaga solinadi, keyin esa uning ustiga

sun'iy oshqozon shirasidan 200-300 ml solinadi (ezilgan go'shtga nisbatan 10:1 hisobida).

Sun'iy oshqozon shirasini tayyorlash uchun 1foizli xlorid kislotasiga 3 foizli pepsin qo'shiladi. Xlorid kislota eritmasi oldindan tayyorlab qo'yiladi, pepsin esa tajribadan oldin qo'shiladi. Kolba og'zi tiqin bilan bekitilib, yaxshilab aralashtiriladi va kolba 37o li termostatga 19-24 soat go'sht erishi uchun qo'yiladi. Bu vaqt ichida kolba ichidagi narsalar bir necha marta chayqatiladi, keyin esa kichik teshikli suzgich orqali filtrlanadi yoki probirkalarga solinib, sentrafuga qilinadi. Hosil bo'lgan cho'kma Paster pipetkasi yokibakteriologik halqa yordamida buyum shishachasiga olinadi va trixinelloskop yordamida tekshiriladi. Agar trixinella lichinkalari ohaklangan bo'lsa, cho'kmada oq chuvalchangga o'xshab ko'rinadi. Ohaklangan sistalar cho'kmada spiralga o'xshaydi.

Sistitserkoz (finnoz) – invazion kasallik bo'lib, parazit lichinkasininghayvon muskullarida va ichki organlarida o'rnashishidan iboratdir. Lichinkaning nomisistitserk, kasalligi esa sistitserkoz deb ataladi. Kasallikningkelib chiqish tabiati har xil. Hayvonlarda sistitserkoz, odamlarda lentasimon gijjasi – T.Saginitus(ho'kiz solityori) vaT.Solium (cho'chqa solityori). Qishloq xo'jalik hayvonlaridan qoramol va cho'chqalar so'yish va qayta ishlash jarayonida tanasini va ichki organlarini ekspertiza qilishda sistitserklarni bor-yo'qligi sinchiklab tekshiriladi..

Klinik belgilar. Bu kasallik bilan asosan yosh otlar kasallanadi . Kasallik juda xavflibo'lib toylarni o'limigacha olib keladi. Bunda ishtaxaning yo'qolishi, tana haroratiningko'tarilishi, qorinda muntazam sanchiq kuzatiladi. Ot organizmiga tushgan paraskaridozgelminti ovqat hazm qilish orqali ichakka tushadi, ichakdan o't pufagiga o'tib, unibekitip qoyadi. Ichakdan hatto nafas yo'llariga ya'ni lichinkalar o'pkaga ham o'tadi.O'pkadan o'tayotganda vaqtda hayvon yo'taladi, ba'zan burnidan yiring aralashsuyuqlik keladi, harorati ko'tariladi, asabiylik, bezovtalik alomatlari paydo bo'ladi.Hayvon ozib ketadi. Jinsiy voyaga yetgan gelmintlarning ta'siridan oshqozon vaichaklar yallig'lanib, ovqat hazm qilish buziladi, qorni kattalashadi, ich ketadi yokiqotadi , sanchiq paydo bo'ladi va otlarning jismoniy qobiliyati pasayadi.

Bu kasallik bahoroylarida ortib kuzda eng yuqori darajaga yetadi.Organizmdagi askaridalar o'zidanzaharli moddalar chiqaradi, butun organizmni zaharlaydi va hayonda umumiyzaharlanish kuzatiladi. Voyaga yetgan hayvon tashuvchi hisoblanadi

DiagnozKasallika diagnoz qo'yish hayvon so'yilgandan keyin tana go'shtida va ichki organlarida sistitserklarni aniqlashdan iborat. Qoramol sistitserki pufakcha

bo'lib, tiniq, shakli yumaloq yoki tuxumsimon, rangi kulrang oqish, kattaligi igna tugma boshidek. Tashqi tomonidan nozik biriktiruvchi to'qima qobig'i bilan o'ralgan, ichidagi suyuqlikda parazit ko'rinib turadi.

Sistitserk pufakchalarining tashqi yuzasi bosilganda ichidagi boshi (skoleksi) qimirlaydi. Lupa yordamida yoki mikroskopning kichik kattaligida qaralganda to'rtta yaxshi taraqqiy qilgan so'rg'ichlari ko'rinib turadi. Odatda qoramol sistitserklari ko'pincha yurak muskulida, nisbatan kamroq til, bo'yin qorin devori muskullarida uchraydi. Tana muskullaridan tashqari sistitserk lichinkalari bosh miyada, o'pkada, jigarda va taloqda ham uchrashi mumkin.

Cho'chqa sistitserki yarim tiniq pufakcha bo'lib, shaklli sharsimon yoki ellipsga o'xshash, kattaligi 0,5-0,8 sm pufak ichida skoleps oq dog'dek ko'rinib turadi. Skoleks 50-70 barovar kattalashtirganda, og'iz teshigini, 4 ta so'rg'ichini, 28-32 ta ilmoqlarini ko'rish mumkin. Sistitserklar cho'chqaning yurak, til, bel, bo'yin va ko'krak muskullari atrofida uchraydi

MetodikaIshlab chiqarishda bu usul ko'p qo'llanilmaydi, chunki tuzlangan sistitserklar bujmayib qolishi natijasida ularni go'shtdan ajratib olishning imkoniyati bo'lmaydi. Tekshirishni o'tkazish uchun go'sht namunasidan kamida 10 ta parazitni ajratib olish kerak. Agar tuzlangan go'shtdagi sistitserklar tekshirilayotgan bo'lsa, oldindan issiq suv yordamida yaxshilab yuviladi, keyin esa qaychi bilan muskul to'qimasidan ajratiladi va tashqi biriktiruvchi to'qima qoplamasidan xoli qilinadi. Har qaysi sistitserk barmoq yordamida pufagidan siqib chiqariladi va bakteriologik likopchaga solinadi. Likopchada 50 foizli yoki 80foizli fiziologik eritmada tayyorlangan o't bo'ladi.

Bunday eritmani tayyorlash uchun hamma hayvonlar o'ti ishlatilishi mumkin. Iloji bo'lsa, o't suyuqligi eritmasini 37-40o gacha qizdirib, shu haroratda ushlab turilishi kerak. Agar parazitlar tirik bo'lsa, 10-30 minutdan keyin skoleksini har tomonlama harakatini kuzatish mumkin, lekin dum qismi harakatsiz bo'ladi. Yuqoridagi usul yordamida zararsizlantirilgan sistitserkli go'sht ishlatishga chiqarishdan oldin tekshirilishi lozim

HulosaOtlar orasida zararlanish asosan, kasal va sog' hayvonlar birga boqilganda, otxonalarda ozuqa bazasining etarli zoogigiyenik talablarga javob bermaganda va sanitariya gegienalik tozalash ishlari , go'nglarni o'z vaqtida chiqarmaslik va zararsizlantirmaslik oqibatida kelib chiqadi. Kasallikning oldini olish uchun qulunlar avgustda va sutdan ajratilgandan so'ng, toylar va katta otlar bahorda va kuzda rejali degelmintizasiya qilish zarur. Otlar najasini Fyulleborn usulida tekshirish. Paraskaridalar bilan kasallangan ot bolalari najaslarida har doim nematode tuxumlari topilmaydi, shuning uchun diagnostik degelmintizatsiya

qilish tavsiya etiladiotxonalarini har doim toza saqalash, go'nglarni vaqtida olib chiqish va dezinfeksiya ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadga muvofiq

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

4. Васильев, В.К. Лечение хирургических заболеваний спортивных лошадей на госконюшне «Бурятская» / В.К. Васильев, В.А. Леонтьева // .198 Вестник Бурятской государственной сельскохозяйственной академии им. В.Р. Филиппова. - 2009. - № 3. - С. 7-13.
5. Вогел К. Ваша лошадь. Полное практическое руководство по уходу за лошадьми / К. Вогел. - М.: БММ, 2003. - 192 с.
6. Жукова, М.В. Ветеринария: Тендинит. Найти и обезвредить. Часть 2. Методы и эффективность лечения / М.В. Жукова, М. Савицкая // Муста